

**XORIJIY MAMLAKATLARDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI FISKAL QO‘LLAB-
QUVVATLASH TAJRIBASI****Ne‘matov Ne‘matulla Erkinboyevich**

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti

Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi kafedrası katta o‘qituvchisi.

+99893-449-78-00

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20383008>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda hududiy rivojlanishni fiskal qo‘llab-quvvatlash tajribasi Yevropa Ittifoqi, OECD mamlakatlari, Xitoy, Rossiya va Turkiya misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda budjetlararo transfertlar, hududiy investitsiya fondlari, soliq va bojxona imtiyozlari, maxsus iqtisodiy zonalar hamda submilliy investitsiyalarning hududiy tafovutlarni kamaytirishdagi o‘rni yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, samarali fiskal siyosat tenglashtiruvchi va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Maqolada xorijiy tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun hududiy fiskal siyosatni differensiallashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: hududiy rivojlanish, fiskal qo‘llab-quvvatlash, budjetlararo transfertlar, soliq imtiyozlari, davlat investitsiyalari, maxsus iqtisodiy zona, submilliy moliya, hududlararo tafovut, investitsiya grantlari, mahalliy budjet, fiskal tenglashtirish, xorijiy tajriba.

Аннотация. В статье анализируется зарубежный опыт фискальной поддержки регионального развития на примере Европейского союза, стран ОЭСР, Китая, России и Турции. Особое внимание уделено межбюджетным трансфертам, региональным инвестиционным фондам, налоговым и таможенным льготам, специальным экономическим зонам и субнациональным инвестициям как инструментам сокращения территориальных различий. Результаты исследования показывают, что эффективная фискальная политика основывается на сочетании выравнивающих и стимулирующих механизмов. На основе зарубежного опыта в статье сформулированы научно-практические выводы по дифференциации региональной фискальной политики для Узбекистана.

Ключевые слова: региональное развитие, фискальная поддержка, межбюджетные трансферты, налоговые льготы, государственные инвестиции, специальная экономическая зона, субнациональные финансы, межрегиональные различия, инвестиционные гранты, местный бюджет, фискальное выравнивание, зарубежный опыт.

Abstract. This article analyzes international experience in fiscal support for regional development, focusing on the European Union, OECD countries, China, Russia and Türkiye. The study examines interbudgetary transfers, regional investment funds, tax and customs incentives, special economic zones and subnational investments as instruments for reducing territorial disparities. The findings show that effective fiscal policy is based on a balanced combination of equalizing and stimulating mechanisms. Drawing on foreign experience, the article formulates scientific and practical conclusions on the differentiation of regional fiscal policy for Uzbekistan, with particular emphasis on transparency, result-based incentives and local development priorities.

Keywords: regional development, fiscal support, interbudgetary transfers, tax incentives, public investment, special economic zone, subnational finance, interregional disparities, investment grants, local budget, fiscal equalization, foreign experience.

Kirish

Hududiy rivojlanishni fiskal qo'llab-quvvatlash bugungi kunda davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki hududlar o'rtasida sanoat salohiyati, soliq bazasi, xizmatlar bozori, infratuzilma, investitsiya jozibadorligi va aholining daromad manbalari bir xil shakllanmaydi. Shu bois rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida budjetlararo transfertlar, hududiy investitsiya grantlari, soliq imtiyozlari, maxsus iqtisodiy zonalar, infratuzilma xarajatlari hamda submilliy budjet mustaqilligi hududiy siyosatning asosiy fiskal instrumentlari sifatida qo'llaniladi.

Xorijiy tajribani o'rganish O'zbekiston uchun ham dolzarbdir, chunki mamlakatda hududlar kesimida iqtisodiy faollik va mahalliy daromad bazasi sezilarli darajada farqlanadi.

Masalan, 2025-yil uchun respublika budjetidan hududlarga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar jami 18 462,2 mlrd so'm etib belgilangan bo'lib, bu hududiy tenglashtirish masalasi amaliy jihatdan ham dolzarb ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida budjetlararo transfertlar tizimi huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Jumladan, "budjetlararo transfertlar subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, budjet ssudasi, o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar shaklida amalga oshiriladi"[1] degan mazmun hududiy moliyalashtirishning ko'p kanalli mexanizmini ifodalaydi.

Shuningdek, Budjet kodeksi bo'yicha "subvensiya muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga qaytarib bermaslik sharti bilan ajratiladigan mablag'" sifatida belgilanadi. Soliq kodeksida esa soliq imtiyozlari "soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliqni to'lamaslik yoki kamroq miqdorda to'lash imkoniyati" sifatida izohlanadi [2]. Ushbu normalar O'zbekistonda hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning fiskal-huquqiy poydevori mavjudligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi

Ilmiy adabiyotlarda hududiy rivojlanishni fiskal qo'llab-quvvatlash markaz va hududlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar, davlat investitsiyalari, soliq imtiyozlari va institutsional boshqaruv sifati bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Kayukov, Lajensev va Shixverdiyev hududiy iqtisodiy siyosatning institutsional xususiyatiga e'tibor qaratib, "milliy iqtisodiyot hududiy iqtisodiyotlar yig'indisiga oddiy tarzda tenglashtirilishi mumkin emas" deb ta'kidlaydi [6]. Bu fikr xorijiy tajribani ko'r-ko'rona ko'chirish emas, balki har bir davlatning fazoviy tuzilishi, fiskal federalizm darajasi va hududiy boshqaruv modeliga moslashtirish zarurligini anglatadi.

Ahmadov va Novosyolova hududiy barqaror rivojlanishda institutsional sharoitlar muhimligini qayd etib, "federal qonunlar, 'o'yin qoidalari', kodekslar va institutsional o'zgarishlarning boshqa elementlari hududiy xususiyatlarni hisobga olishi kerak" degan xulosani ilgari suradi [7]. Bu yondashuv Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Xitoy va Rossiya tajribasini tahlil qilishda muhimdir, chunki har bir mamlakatda fiskal qo'llab-quvvatlash instrumentlari hududiy tafovutlarning sababi va boshqaruv tizimiga qarab farqlanadi.

Kireyeva va Pozdnyayev fiskal rag'batlantirishni geoiqtisodiy strategiya bilan bog'lab, "alohida hududlarni rivojlantirishni fiskal rag'batlantirishning zamonaviy konsepsiyalari uyg'un iqtisodiy o'sishni ta'minlash, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va milliy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan" deb yozadi [8]. Mualliflar maxsus soliq va bojxona sharoitlari strategik hududlarda klasterlar va o'sish nuqtalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kovarda va Timofeyeva Rossiya tajribasini o'rganib, "ko'pchilik mamlakatlar hududiy rivojlanishni davlat tomonidan boshqarishda ekzogen va endogen omillarni birgalikda

qo‘llamoqda” degan xulosaga keladi [9]. Ularning fikricha, zamonaviy hududiy siyosat tobora differensial xarakter kasb etmoqda, ya’ni barcha hududlarga bir xil imtiyoz yoki bir xil budjet modeli berish samarali emas.


Metodologiya

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv, statistik umumlashtirish va mamlakatlar kesimida tajriba taqqoslash usullaridan foydalanildi. Xorijiy tajriba Yevropa Ittifoqi, OECD mamlakatlari, Xitoy, Rossiya va Turkiya misolida o‘rganildi. Asosiy e’tibor fiskal qo‘llab-quvvatlash instrumentlari — budjetlararo transfertlar, hududiy investitsiya fondlari, soliq va bojxona imtiyozlari, maxsus iqtisodiy zonalar, submilliy investitsiyalar va ham moliyalashtirish mexanizmlariga qaratildi. O‘zbekiston bo‘yicha huquqiy asos sifatida Budjet kodeksi, Soliq kodeksi, “2025-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonun va maxsus iqtisodiy zonalar o‘id qonunchilik normalari tahlil qilindi.

Natijalar

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hududiy rivojlanishni fiskal qo‘llab-quvvatlashda eng samarali yondashuv bir nechta instrumentni uyg‘unlashtirishdan iborat.

Yevropa Ittifoqida 2021–2027-yillar uchun Kogezion siyosat doirasida 392 mlrd yevro mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bu mablag‘lar hududlarni “kam rivojlangan”, “o‘tish davridagi” va “ko‘proq rivojlangan” toifalarga ajratish asosida yo‘naltiriladi. OECD mamlakatlarida submilliy hokimiyatlar 2022-yilda jami davlat xarajatlarining 40 foizini va davlat investitsiyalarining 58 foizini boshqargani hududiy rivojlanishda mahalliy moliyaviy vakolatlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Xitoyda 2022-yilda markaziy hukumatdan mahalliy hukumatlarga transfertlar 9,71 trln yuandan oshib, bir yilda 17,1 foizga ko‘paygan. Rossiya tajribasida tenglashtiruvchi grantlar kambag‘alroq hududlarga qayta taqsimlashda muhim o‘rin tutadi. Turkiyada esa investitsiya rag‘batlari hudud, sektor va loyiha miqyosiga qarab farqlanadi: QQSdan ozod qilish, bojxona boji imtiyozlari, ijtimoiy sug‘urta badalini qoplash, yer ajratish va foiz xarajatlarini subsidiyalash keng qo‘llaniladi.



1-rasm. Fiskal mexanizmlarning hududiy rivojlanishga ta’sir kanallari¹

Rasmda ko‘rsatilganidek, fiskal mexanizmlar hududiy rivojlanishga bevosita va bilvosita kanallar orqali ta’sir etadi. Daromadlar taqsimoti mahalliy daromad bazasini shakllantirsa, budjetlararo transfertlar xizmatlar tenglashuvini ta’minlaydi.

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliq imtiyozlari xususiy sarmoya va ish o‘rinlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Davlat investitsiyalari infratuzilma hamda aglomeratsion rivojlanishni kuchaytiradi. Mahalliy qarz va kofinanslash qoidalari esa fiskal barqarorlikni ta‘minlash orqali hududiy o‘shish va tafovutlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, xorijiy tajribada fiskal qo‘llab-quvvatlash faqat mablag‘ ajratish emas, balki daromad, xarajat, investitsiya, soliq va qarz mexanizmlarini yagona hududiy siyosat doirasida muvofiqlashtirish sifatida namoyon bo‘ladi.

Kofinanslash — investitsion va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy yukni bir nechta subyektlar o‘rtasida taqsimlash mexanizmi hisoblanadi.

1-jadval.

Xorijiy mamlakatlarda hududiy rivojlanishni fiskal qo‘llab-quvvatlash instrumentlari²

Mamlakat yoki blok	Asosiy fiskal instrument	Statistik yoki amaliy dalil	O‘zbekiston uchun xulosa
Yevropa Ittifoqi	Kogezion fondlar, ERDF, ham moliyalashtirish	2021–2027-yillarda 392 mlrd yevro	Hududlarni rivojlanish darajasiga qarab moliyalashtirish zarur
OECD mamlakatlari	Submilliy investitsiyalar va qoidaboz transfertlar	Davlat investitsiyalarining 58 foizi submilliy darajada	Mahalliy investitsiya salohiyati va hisobdorlik kuchaytirilishi kerak
Xitoy	Markazdan mahalliy hukumatlarga transfertlar	2022-yilda 9,71 trln yuan, +17,1 foiz	Katta transfertlar loyiha samaradorligi bahosi bilan bog‘lanishi lozim
Rossiya	Tenglashtiruvchi grantlar, subsidiyalar, subvensiyalar	Kambag‘al hududlarni qo‘llab-quvvatlashda grantlar muhim	Transfertlar o‘shish siyosati bilan birga yuritilishi kerak
Turkiya	Hududiy va sektorli investitsiya imtiyozlari	QQS, bojxona, ijtimoiy sug‘urta, yer va foiz qo‘llovi	Imtiyozlar joylashuv, sektor va natija KPilariga bog‘lanishi lozim

Mazkur jadval rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda fiskal mexanizmlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Tahlildan ko‘rinadiki, har bir davlat hududiy tafovutlarni kamaytirish uchun o‘ziga xos fiskal instrumentlardan foydalanadi.

Yevropa Ittifoqida kogezion fondlar va ham moliyalashtirish mexanizmlari hududlararo tenglikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Katta hajmdagi mablag‘larning ajratilishi hududlarni rivojlanish darajasiga qarab differensial moliyalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

OECD mamlakatlarida davlat investitsiyalarining asosiy qismi submilliy darajada amalga oshirilishi mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy rolini oshiradi. Bu esa hududiy investitsiya salohiyati va moliyaviy hisobdorlikni kuchaytirish muhimligini anglatadi.

Xitoy tajribasi markaziy transfertlarning katta hajmda qo‘llanishini namoyon etadi. Biroq transfertlar samaradorligi loyiha natijadorligi bilan bog‘langanda fiskal resurslardan foydalanish sifati oshadi.

Rossiyada tenglashtiruvchi grantlar kambag‘al hududlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita bo‘lsa-da, transfertlar iqtisodiy o‘shish siyosati bilan uyg‘unlashtirilishi zarurligi ko‘rinadi.

² Muallif tomonidan tayyorlandi.

Turkiyada hududiy investitsiya imtiyozlari sektor, hudud va natijadorlik mezonlari asosida qo'llanilishi fiskal rag'batlarning maqsadli va samarali bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, xalqaro tajriba fiskal mexanizmlarning samaradorligi ularning natijadorlik, hududiy ehtiyoj va institutsional boshqaruv bilan uyg'unlashgan holda qo'llanishiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda hududiy rivojlanishni fiskal qo'llab-quvvatlash ikki model asosida shakllanadi. Birinchi model — tenglashtiruvchi model bo'lib, u Yevropa Ittifoqi, Rossiya va qisman Xitoy tajribasida yaqqol ko'rinadi. Bu modelda fiskal resurslar iqtisodiy salohiyati past hududlarga yo'naltirilib, minimal ijtimoiy xizmatlar, infratuzilma va budget barqarorligi ta'minlanadi. Ikkinchi model — rag'batlantiruvchi model bo'lib, Turkiya, Xitoy maxsus zonalari va OECD mamlakatlarida keng qo'llanadi. Unda hududlarning o'z salohiyatini ishga solishi, investitsiya jalb qilishi, eksport va texnologik klasterlar yaratishi rag'batlantiriladi. O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuv ushbu ikki modelni uyg'unlashtirishdir: ijtimoiy xizmatlar bo'yicha tenglashtiruvchi transfertlar saqlanadi, ammo o'sish nuqtalari uchun raqobatbardosh investitsiya grantlari va natijaga bog'langan soliq imtiyozlari joriy etiladi.

2-jadval.

Xorijiy tajribadan kelib chiqadigan afzalliklar va cheklovlar³

Yondashuv	Afzalligi	Cheklovi	O'zbekiston uchun moslashtirish yo'li
Tenglashtiruvchi transfertlar	Ijtimoiy xizmatlar minimumini saqlaydi	Doimiy budget qaramligini kuchaytirishi mumkin	Formula asosida, ochiq mezonlar bilan taqsimlash
Hududiy investitsiya fondlari	Infratuzilma va ishlab chiqarishni tezlashtiradi	Loyiha tanlovi sifatsiz bo'lsa, mablag' samarasiz ketadi	Xarajat-foyda tahlili va KPilar bilan bog'lash
Soliq imtiyozlari	Investor uchun dastlabki rag'bat yaratadi	Fiskal yo'qotish va "o'lik yuk" xavfi mavjud	Muddatli, shaffof va natijaga bog'langan imtiyozlar
Maxsus iqtisodiy zonalar	Eksport, sanoat va klasterlarni rivojlantiradi	Faqat infratuzilma va kadrlar mavjud bo'lsa ishlaydi	Logistika, energiya va malaka dasturlari bilan birga qo'llash
Submilliy moliyaviy vakolatlar	Mahalliy tashabbusni kuchaytiradi	Nazorat sust bo'lsa, fiskal intizom zaiflashadi	Mahalliy budget mustaqilligi va audit nazoratini uyg'unlashtirish

Mazkur jadval hududiy rivojlanishda qo'llaniladigan asosiy fiskal yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlarini tizimli ravishda yoritadi. Unda fiskal instrumentlarning samaradorligi ularni qo'llash mexanizmi va institutsional nazorat darajasiga bog'liqligi ko'rsatib berilgan.

Tenglashtiruvchi transfertlar hududlarda minimal ijtimoiy xizmatlarni saqlash imkonini beradi, biroq uzoq muddatda budget qaramligini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli ularni formula va aniq mezonlar asosida taqsimlash muhim hisoblanadi.

³ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Hududiy investitsiya fondlari infratuzilma va ishlab chiqarishni rivojlantirishda samarali vosita bo'lsa-da, loyiha tanlovining sifatsizligi mablag'lardan samarasiz foydalanishga olib keladi. Shu bois xarajat-foyda tahlili va KPI tizimini joriy etish zarur.

Soliq imtiyozlari investitsion faollikni rag'batlantiradi, ammo ortiqcha imtiyozlar fiskal yo'qotish xavfini oshiradi. Shuning uchun imtiyozlar muddatli, shaffof va natijadorlikka bog'langan bo'lishi kerak.

Maxsus iqtisodiy zonalar eksport va sanoat klasterlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq ularning samaradorligi logistika, energetika va malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasiga bevosita bog'liq.

Submilliy moliyaviy vakolatlar mahalliy tashabbus va fiskal mustaqillikni kuchaytiradi.

Ammo nazorat mexanizmlari sust bo'lsa, fiskal intizom zaiflashishi mumkin. Shu sababli mahalliy budjet mustaqilligi audit va moliyaviy nazorat bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Umuman olganda, jadval O'zbekistonda hududiy fiskal siyosatni takomillashtirishda xalqaro tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Xorijiy mamlakatlar tajribasi hududiy rivojlanishni fiskal qo'llab-quvvatlashda yagona universal model mavjud emasligini ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqi tajribasi ko'p yillik, formula va natijadorlikka asoslangan hududiy fondlar muhimligini ko'rsatsa, OECD tajribasi submilliy investitsiyalar va mahalliy moliyaviy vakolatlarining ahamiyatini tasdiqlaydi. Xitoy va Rossiya tajribasi transfertlar hududiy tenglashtirishda zarur ekanini, ammo ularning o'zi iqtisodiy konvergensiyaning to'liq ta'minlanishini ko'rsatadi. Turkiya modeli esa soliq va investitsiya imtiyozlarini hudud, sektor va loyiha natijalariga bog'lash zarurligini namoyon etadi.

O'zbekiston uchun asosiy xulosa shuki, hududiy fiskal siyosat tenglashtirish va rag'batlantirish vazifalarini bir vaqtda bajarishi, soliq imtiyozlari esa muddatli, shaffof va aniq natija indikatorlari bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, amaldagi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, amaldagi tahrir.
3. "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonun. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, amaldagi tahrir.
5. O'zbekiston uchun hududiy rivojlanishda fiskal mexanizmlar bo'yicha tahliliy hisobot. — Toshkent, 2026. — 14 b.
6. Каюков В. В., Лаженцев В. Н., Шихвердиев А. П. Экономическая политика и институты развития регионов // Экономика региона. — 2019. — Т. 15, вып. 4. — С. 996–1008. — DOI: 10.17059/2019-4-3.
7. Ахмадов М.-Э.И., Новосёлова Н. Н. Исследование формирования условий и механизмов устойчивого развития экономики регионов // Экономический вестник Ростовского государственного университета. — 2008. — Т. 6, № 1, ч. 2. — С. 19–24.

8. Киреева Е. Ф., Поздняев А. С. Фискальное стимулирование регионов в контексте экономических и геополитических государственных стратегий: теоретический подход // Вестник Алтайской академии экономики и права. — 2025. — № 5. — С. 140–146.
9. Коварда В. В., Тимофеева О. Г. Особенности инструментов стимулирования регионального развития в России // Вестник Алтайской академии экономики и права. — 2018. — № 8. — С. 135–143.